2026-yil
8-son

FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 159.9:001.8:37.015.3

Raximova Aziza Davranbekovna,
Innovatsion texnologiyalar universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi
dotsenti v.b., PhD

EPISTEMIK TAFAKKURNI PSIXOLOGIK TADQIQ ETISHDA "EPISTEMIK TAFAKKUR SHKALASI" METODIKASINING IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada epistemik tafakkurni o'rganishda "Epistemik tafakkur shkalasi" metodikasining nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Epistemik tafakkur shaxsning bilimni anglash, baholash va undan foydalanish jarayonidagi fikrlash xususiyatlarini ifodalaydi. Tadqiqotda epistemik tafakkurning psixologik mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda rivojlanish darajalari yoritilgan. Shuningdek, "Epistemik tafakkur shkalasi" metodikasining tuzilishi, qo'llash tartibi va natijalarni interpretatsiya qilish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada mazkur metodika orqali talabalarning tanqidiy va refleksiv fikrlash ko'nikmalarini aniqlash, ularning bilimga bo'lgan munosabatini baholash hamda ta'lim jarayonidagi samaradorligini oshirish masalalari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari epistemik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: epistemik tafakkur, epistemik tafakkur shkalasi, refleksiv fikrlash, tanqidiy tafakkur, bilish jarayoni, psixologik metodika, ta'lim samaradorligi.

ВОЗМОЖНОСТИ МЕТОДИКИ «ШКАЛА ЭПИСТЕМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ» В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ИССЛЕДОВАНИИ ЭПИСТЕМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты применения методики «Шкала эпистемического мышления» в исследовании эпистемического мышления. Эпистемическое мышление отражает особенности понимания, оценки и использования знаний в процессе познавательной деятельности личности. В исследовании раскрываются психологическая сущность эпистемического мышления, его структурные компоненты и уровни развития. Также анализируются структура методики «Шкала эпистемического мышления», порядок её применения и возможности интерпретации результатов. В статье особое внимание уделяется выявлению у студентов навыков критического и рефлексивного мышления, оценке их отношения к знаниям, а также повышению эффективности

образовательного процесса посредством данной методики. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования психолого-педагогических подходов, направленных на развитие эпистемического мышления.

Ключевые слова: эпистемическое мышление, шкала эпистемического мышления, рефлексивное мышление, критическое мышление, познавательный процесс, психологическая методика, эффективность образования.

THE POTENTIAL OF THE "EPISTEMIC THINKING SCALE" IN THE PSYCHOLOGICAL STUDY OF EPISTEMIC THINKING

Abstract. This article examines the theoretical and practical significance of using the "Epistemic Thinking Scale" methodology in the study of epistemic thinking. Epistemic thinking reflects an individual's ability to understand, evaluate, and apply knowledge within the process of cognitive activity. The study highlights the psychological essence of epistemic thinking, its structural components, and developmental levels. In addition, the structure of the "Epistemic Thinking Scale" methodology, the procedure for its application, and the possibilities for interpreting the obtained results are analyzed. Particular attention is paid to identifying students' critical and reflective thinking skills, assessing their attitudes toward knowledge, and improving the effectiveness of the educational process through this methodology. The findings of the study are important for improving psychological and pedagogical approaches aimed at developing epistemic thinking.

Keywords: epistemic thinking, epistemic thinking scale, reflective thinking, critical thinking, cognitive process, psychological methodology, education.

Kirish. Tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda epistemik e'tiqodlar va epistemik tafakkur muammosiga oid M. Baxter Magolda, B. K. Hofer, P. R. Pintrich, D. Conley, M. Schommer, P. M. King hamda K. S. Kitchenerlarning ilmiy qarashlari nazariy-metodologik asos sifatida qabul qilindi. Xususan, Hofer va Pintrich epistemik e'tiqodlarni bilimning tabiati hamda bilish jarayonining psixologik xususiyatlari bilan bog'liq murakkab tizim sifatida izohlaydilar. Ular bilim manbai, bilimning aniqligi va qat'iyligi, uning o'zgaruvchanligi hamda bilimni asoslash mezonlari kabi komponentlarning epistemik tafakkurni o'rganishdagi diagnostik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Schommer epistemik e'tiqodlar bir yo'nalishli hodisa emas, balki ko'p o'lchovli psixologik tizim ekanligini ta'kidlab, ularni nisbatan mustaqil, shu bilan birga o'zaro bog'liq va ta'sirlashuvchi kognitiv tuzilmalar sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuv tadqiqotda epistemik tafakkurning alohida tarkibiy komponentlarini differensial baholash hamda ularga mos psixodiagnostik metodlarni tanlashga metodologik asos bo'ldi.

Baxter Magolda epistemik rivojlanishni shaxsning bilishga doir mustaqilligi, bilim manbalariga va avtoritetga munosabati hamda mavjud bilimlarni mustaqil ravishda qayta ko‘rib chiqish va konstruksiyalash salohiyati bilan bog‘laydi. Uning qarashlari oliy ta’lim bosqichida shaxs epistemik pozitsiyasining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini tushunishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

King va Kitchener tomonidan ishlab chiqilgan reflektiv hukm nazariyasida noaniqlik sharoitida dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish, turli va qarama-qarshi ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish hamda bilimning nisbiy va chegaralangan xususiyatini anglash epistemik tafakkurning rivojlangan shakli sifatida talqin etiladi. Mazkur nazariy yondashuv tadqiqot metodologiyasiga dalillash, tahlil qilish va refleksiv qayta baholash bilan bog‘liq psixodiagnostik usullarni kiritish uchun nazariy zamin yaratdi.

D. Conley tomonidan ishlab chiqilgan “Epistemik tafakkur shkalasi” tadqiqotning markaziy diagnostik vositasi sifatida tanlandi. Ushbu metodika bilim manbalarini baholash, bilimning aniqligi va qat’iyligini anglash, uning rivojlanuvchanligini tushunish hamda bilimlarni dalillash kabi epistemik tafakkurning muhim tarkibiy komponentlarini tizimli ravishda o‘lchash imkonini beradi. Mazkur metodikaning tanlanishi, avvalo, talabalik davrida epistemik tafakkurning tarkibiy tuzilishini differensial tarzda aniqlash imkoniyati bilan izohlanadi.

Shuningdek, “Epistemik tafakkur shkalasi” orqali epistemik tafakkur darajasidagi individual va guruhiy farqlarni, jumladan, jins, ta’lim bosqichi, hudud hamda ta’lim yo‘nalishi kabi omillar bilan bog‘liq psixologik tafovutlarni aniqlash mumkin. Shu bois mazkur metodika talabalarning epistemik tafakkur xususiyatlarini kompleks o‘rganish, olingan natijalarni psixologik jihatdan talqin qilish hamda epistemik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish uchun muhim diagnostik imkoniyatlarga ega.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi. Tadqiqotda epistemik tafakkurning psixologik determinantlari va unga ta’sir etuvchi omillarni chuqurroq o‘rganish maqsadida bir qator psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi. Jumladan, A. V. Xutorskoyning “Tizimli fikrlash darajasini aniqlash testi” epistemik tafakkurning tizimlilik, sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish, integrativlik, modellashtirish va prognozlash kabi yuqori darajali kognitiv operatsiyalar bilan bog‘liqligini aniqlash maqsadida qo‘llanildi. Chunki epistemik yetuklik ko‘p jihatdan shaxsning axborotni alohida faktlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq va yaxlit tizim sifatida idrok etish qobiliyati bilan belgilanadi. Mazkur metodika epistemik tafakkurning nafaqat mazmuniy, balki uning strukturaviy-kognitiv asoslarini ham aniqlashtirish imkonini berdi.

A. A. Alekseeva va L. A. Gromova tomonidan ishlab chiqilgan “Tafakkur uslubini aniqlash” so‘rovnomasi epistemik tafakkurning turli tafakkur uslublari, xususan, sintezatorlik, analizatorlik, realistik va idealistik yo‘nalishlar bilan o‘zaro aloqadorligini aniqlash uchun tanlandi. Bilishga doir individual pozitsiya va bilimni

qabul qilish, qayta ishlash hamda baholash jarayoni ko‘p jihatdan shaxsning ustuvor tafakkur uslubi bilan belgilanadi. Shu sababli mazkur metodika epistemik tafakkurning individual-psixologik xususiyatlarini kengroq tahlil qilishga xizmat qildi.

P. Torrensning “Kreativ fikrlashni aniqlash” metodikasi epistemik tafakkurning ravonlik, originallik, muammoli vaziyatlarga nisbatan moslashuvchanlik va tafakkurning rivojlanganlik darajasi bilan o‘zaro munosabatini aniqlash maqsadida qo‘llanildi. Chunki yangi bilimlarni qabul qilish, mavjud qarashlarni qayta ko‘rib chiqish va muqobil yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati ko‘pincha shaxsning kreativ fikrlash salohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur metodika epistemik tafakkurning ijodiy qayta qurish va yangi bilimlarni hosil qilish jarayonlari bilan aloqadorligini aniqlash imkonini berdi.

E. F. Zeer, A. M. Pavlova va N. O. Sadovnikova tomonidan tavsiya etilgan “Matematik qobiliyatni aniqlash diagnostikasi” metodikasi epistemik tafakkurning abstraksiyalash, simvollashtirish, modellashtirish, refleksivlik va tasviriy tasavvur kabi intellektual jarayonlar bilan bog‘liqligini o‘rganish maqsadida tanlandi. Ushbu metodika epistemik tafakkur faqat bilimga oid nazariy qarashlar majmui emas, balki murakkab aqliy qayta ishlash mexanizmlariga asoslangan ko‘p komponentli kognitiv tizim ekanligini aniqlashga yordam berdi.

N. V. Kalinina tomonidan ishlab chiqilgan “Shaxsiy va kasbiy o‘sish motivatsiyasi” metodikasi epistemik tafakkurning o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiya, o‘z ustida ishlashga intilish hamda natijaga yo‘naltirilganlik bilan bog‘liqligini aniqlash uchun tadqiqot dasturiga kiritildi. Chunki epistemik pozitsiyaning shakllanishi faqat shaxsning bilish imkoniyatlari bilan emas, balki uning o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoji va ichki rag‘batlantiruvchi omillari bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Shuningdek, “Semantik differensial” metodikasi epistemik tafakkurning baho, kuch va faollik kabi subyektiv-semantik ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro munosabatini aniqlashga xizmat qildi. Ushbu metodika yordamida shaxsning bilim, bilish jarayoni va intellektual faoliyatga nisbatan emotsional-semantik munosabatlarini tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Natijada epistemik tafakkurning nafaqat kognitiv va motivatsion, balki uning subyektiv-baholovchi hamda emotsional-semantik jihatlarini ham kompleks tarzda o‘rganish imkoniyati kengaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodlar tizimini shakllantirishda ularning tadqiqot mavzusining konseptual modeliga muvofiqligi, diagnostik sezgirligi, o‘zaro to‘ldiruvchanligi hamda talabalar auditoriyasida qo‘llash qulayligi asosiy mezon sifatida belgilandi. Tadqiqotda qo‘llanilgan barcha metodikalar dastlab nazariy jihatdan ekspert tahlilidan o‘tkazildi. Keyingi bosqichda ularning mazmuniy mosligi, savollar va topshiriqlar ifodasining aniqligi hamda respondentlar tomonidan adekvat qabul qilinishi pilot tadqiqot jarayonida sinovdan o‘tkazildi.

Metodikalarning ishonchliligini ta’minlashda ichki moslik, mazmuniy yaxlitlik, turli o‘lchovlar o‘rtasidagi uyg‘unlik hamda natijalarning izchil

takrorlanish imkoniyati alohida nazorat qilindi. Ishonchlilik psixodiagnostik tadqiqotning muhim metodologik sharti sifatida qaraldi. Chunki epistemik tafakkur kabi ko‘p komponentli psixologik hodisani o‘rganishda tasodifiy yoki yuzaki ma’lumotlarga asoslanish ilmiy xulosalarning aniqligi va ishonchliligini susaytirishi mumkin.

Shu sababli tanlangan metodikalar asosida olingan natijalar o‘zaro qiyoslandi, ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik va mazmuniy muvofiqlik tahlil qilindi hamda har bir ko‘rsatkichning tadqiqot gipotezasini tekshirishdagi ahamiyati baholandi. Mazkur metodlar tizimining asosiy afzalligi epistemik tafakkurni faqat bitta indikator asosida emas, balki uning kognitiv, refleksiv, motivatsion, kreativ va semantik determinantlari bilan uzviy bog‘liqlikda kompleks tahlil qilish imkonini berishidadir.

Natijada tadqiqotda qo‘llanilgan psixodiagnostik vositalarning epistemik tafakkurning tuzilishi, namoyon bo‘lish xususiyatlari hamda uni belgilovchi va rivojlantiruvchi psixologik omillarni empirik jihatdan aniqlash uchun yetarli diagnostik imkoniyat va ilmiy asoslanganlikka ega ekanligi belgilandi.

Tadqiqotda D. Conley tomonidan ishlab chiqilgan “Epistemik tafakkur shkalasi”, A. V. Xutorskoyning “Tizimli fikrlash darajasini aniqlash testi”, A. A. Alekseeva va L. A. Gromova tomonidan ishlab chiqilgan “Tafakkur uslubini aniqlash” so‘rovnomasi, P. Torrensning “Kreativ fikrlashni aniqlash” metodikasi, E. F. Zeer, A. M. Pavlova va N. O. Sadovnikova tomonidan ishlab chiqilgan “Matematik qobiliyatni aniqlash diagnostikasi”, N. V. Kalinina tomonidan ishlab chiqilgan “Shaxsiy va kasbiy o‘sish motivatsiyasi” metodikasi, Ch. Osgudning “Semantik differensial” metodikasi hamda “Talabalarning epistemik tafakkur darajasini aniqlashga qaratilgan psixologik so‘rovnoma”dan foydalanildi.

Conley tomonidan ishlab chiqilgan “Epistemik tafakkur shkalasi”. D. Conley tomonidan 2004-yilda ishlab chiqilgan “Epistemik tafakkur shkalasi” epistemik tafakkurning asosiy tarkibiy xususiyatlarini bir necha yo‘nalish asosida baholashga qaratilgan psixodiagnostik vosita hisoblanadi. Mazkur metodika dastlab ta’lim psixologiyasi doirasida o‘quvchi va talabalarning bilim hamda bilish jarayoniga bo‘lgan munosabatini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Metodikaning nazariy asosini shaxsning bilimni faqat tayyor axborot sifatida qabul qilmasdan, balki uning manbai, ishonchliligi, barqarorligi, o‘zgaruvchanligi va dalillanganlik darajasi asosida baholashi haqidagi qarash tashkil etadi. Shu sababli epistemik tafakkur yagona va bir o‘lchovli psixologik sifat sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq bir nechta tarkibiy komponentlardan iborat murakkab tizim sifatida talqin qilinadi.

Metodikaning original shakli 26 ta banddan iborat bo‘lib, respondentlarning javoblari 5 balli Likert shkalasi asosida baholanadi. Shkala tarkibidagi ayrim bandlar bilim haqidagi soddaroq epistemik tasavvurlarni, boshqalari esa nisbatan murakkab va rivojlangan epistemik qarashlarni aks ettiradi. Mazkur xususiyat epistemik tafakkurning rivojlanish darajasi va individual farqlarini aniqlash imkonini beradi.

Metodikaning muhim jihati shundaki, u shaxsning faqat **“nimani bilishi”**ni emas, balki “qanday bilishi”, “bilimning manbai nima ekanini qanday baholashi” va “o‘z xulosalarini qanday asoslashini” ham aniqlashga xizmat qiladi. Shu bois ushbu shkala talabalarning tanqidiy fikrlashi, refleksivligi, dalillarga asoslangan qarashlari hamda mustaqil xulosa chiqarish xususiyatlarini o‘rganishda muhim diagnostik vosita sifatida qo‘llanishi mumkin.

Keyingi tadqiqotlarda mazkur metodika turli ta’lim va madaniy kontekstlarga moslashtirilgan holda qo‘llanilib, epistemik tafakkurning tarkibiy tuzilishini o‘rganish imkoniyatlari kengaytirildi. Ayniqsa, metodikani muayyan fan yoki ta’lim sohasi kontekstiga moslashtirish epistemik qarashlarning mazmunini yanada aniqroq aniqlash imkonini berishi qayd etiladi.

Mazkur metodikaning amaliy afzalligi uning katta hajmdagi respondentlar guruhida qisqa vaqt ichida qo‘llash mumkinligi, alohida komponentlar bo‘yicha qiyosiy tahlil o‘tkazish hamda respondentlarning umumiy epistemik profilini aniqlash imkoniyatiga egaligidadir. Shu jihatdan, “Epistemik tafakkur shkalasi” mazkur tadqiqotda talabalarning epistemik tafakkur xususiyatlarini aniqlash va ularning boshqa psixologik ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish uchun asosiy diagnostik vosita sifatida tanlandi.

Tahlil va natijalar. Bilim manbaini baholash talabaning bilim qayerdan olinishi va turli manbalarga qay darajada ishonish mumkinligini anglash xususiyatini ifodalaydi. Epistemik tafakkurning nisbatan sodda darajasida bilim tayyor holda beriladigan va asosan tashqi avtoritetlarga tegishli hodisa sifatida qabul qilinadi. Bunday holatda talaba o‘qituvchi, darslik yoki mutaxassis fikrini ko‘proq shartsiz qabul qilishga moyil bo‘ladi.

Rivojlangan epistemik qarashda esa bilim mustaqil fikrlash, savol qo‘yish, tahlil qilish va turli manbalarni qiyoslash orqali anglanadigan jarayon sifatida baholanadi. Bunday talaba ma’lumotni tayyor haqiqat sifatida emas, balki tekshirilishi va asoslanishi lozim bo‘lgan axborot sifatida qabul qiladi. U manbaning ishonchliligi, muallifning mavqei, fikrning dalillanganligi va qarashlarning asoslanganlik darajasiga e’tibor qaratadi. Shu jihatdan, bilim manbaini baholash epistemik mustaqillik va ilmiy savodxonlikning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Bilimning qat’iyligini anglash talabaning bilimni mutlaq va o‘zgarmas haqiqat sifatida yoki murakkab, ko‘p qirrali hamda turli talqinlarga ega hodisa sifatida tushunishini ifodalaydi. Ushbu omilning soddaroq darajasida talaba aksariyat masalalarning faqat bitta to‘g‘ri javobi mavjud, deb hisoblaydi. Rivojlanganroq epistemik qarashda esa, ayniqsa murakkab masalalarda, bir nechta asosli izoh va yondashuvlar mavjud bo‘lishi mumkinligi tan olinadi.

Mazkur omil noaniqlikka munosabat, ko‘p variantli tahlil va ehtiyotkor xulosa chiqarish bilan bevosita bog‘liqdir. Bilimning qat’iyligini chuqurroq anglagan talaba qarama-qarshi fikrlarni mutlaq xato sifatida emas, balki murakkab muammoning

tabiiy xususiyati sifatida qabul qiladi. Natijada unda intellektual moslashuvchanlik, refleksivlik va ilmiy fikrlash madaniyati rivojlanadi.

Bilimning rivojlanuvchanligini anglash bilimni qotib qolgan va o‘zgarmas tizim sifatida emas, balki vaqt o‘tishi bilan boyib, yangilanib va yangi dalillar asosida qayta ko‘rib chiqiladigan hodisa sifatida tushunish bilan bog‘liq. Epistemik qarashning sodda darajasida ilmiy bilim yakunlangan va o‘zgarmas tizim sifatida qabul qilinadi. Rivojlanganroq qarashda esa ilmiy g‘oyalar yangi dalillar, kuzatishlar va tadqiqotlar natijasida o‘zgarishi mumkinligi anglanadi.

Ushbu omil epistemik yetuklik va intellektual ochiqlikning muhim belgilaridan biridir. Bilimning rivojlanuvchanligini anglagan talaba yangi ma’lumotlar asosida o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqishni zaiflik emas, balki ilmiy halollik sifatida qabul qiladi. Bu esa yangilikka ochiqlik, izlanishga qiziqish va dalillar o‘zgargan sharoitda xulosalarni qayta baholash qobiliyatini kuchaytiradi.

Bilimni dalillash talabaning fikr, mulohaza va xulosalarni qabul qilish hamda asoslashda qanday mezonlarga tayanishini ifodalaydi. Bunda asosiy talab bilimning shunchaki aytilgani yoki avtoritet tomonidan bildirilgani uchun emas, balki dalil, kuzatuv, tajriba, taqqoslash va mantiqiy asoslar orqali qabul qilinishidir.

Soddaroq epistemik pozitsiyada shaxs fikrlarni ko‘proq avtoritet, odat yoki subyektiv ishonch asosida qabul qilishi mumkin. Rivojlangan epistemik pozitsiyada esa talaba “Bu fikr nimaga asoslangan?”, “Qaysi dalillar uni qo‘llab-quvvatlaydi?” va “Qarama-qarshi qarashlar qanday tekshirilgan?” kabi savollarni faol qo‘yadi. Shu jihatdan, bilimni dalillash ilmiy tafakkur, tanqidiy tahlil va mustaqil xulosa chiqarishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, epistemik tafakkurning eng muhim tarkibiy omillarini ifodalaydi.

Xulosa. “Bilimni dalillash” omili epistemik tafakkurning eng faol, operatsional va amaliy jihatini namoyon etadi. Chunki aynan ushbu jarayonda shaxs bilimni qabul qilish, baholash va asoslash mezonlarini amaliy faoliyatda qo‘llaydi. Talaba ushbu omil bo‘yicha rivojlangan bo‘lsa, u o‘z xulosalarini shaxsiy qarash, taxmin yoki subyektiv moyillik bilan emas, balki dalillarning kuchi va ishonchliligi asosida himoya qilishga intiladi. Bunday yondashuv ilmiy fikrlash, tanqidiy tahlil va argumentatsiya madaniyatining muhim tayanchi hisoblanadi.

Mazkur omil da’volarni tekshirish, kuzatuv va tajriba natijalarini hisobga olish, turli manbalardagi ma’lumotlarni qiyoslash, dalillar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniqlash hamda qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalar bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli u nafaqat bilimning mazmunini, balki bilimning qanday asoslanishi va uning qanchalik ishonchli ekanini ham yoritadi. Ayniqsa, talabalik davrida ushbu ko‘nikmalarning rivojlanishi mustaqil ilmiy izlanish olib borish va asosli qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksincha, “Bilimni dalillash” omili sust rivojlangan holatda talaba dalilsiz fikrni ham yetarlicha asoslangan bilim sifatida qabul qilishi, manbaning ishonchliligini chuqur tekshirmasligi yoki shaxsiy fikrni obyektiv dalildan ustun

qo‘yishi mumkin. Bu esa tanqidiy fikrlash va ilmiy mulohaza yuritish jarayonini cheklaydi.

Umuman olganda, “Bilimni dalillash” omilining rivojlanishi talabaning ilmiy mulohaza yuritish, asosli hukm chiqarish, dalillarni tanqidiy baholash va o‘z fikrini ishonchli argumentlar orqali himoya qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Shu jihatdan, mazkur omil epistemik tafakkurning yetuklik darajasini belgilovchi muhim mezonlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hofer B. K., Pintrich P. R. Personal Epistemology: The Psychology of Beliefs about Knowledge and Knowing. — Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2002.

2. Kuhn D. The Skills of Argument. — Cambridge: Cambridge University Press, 1991.

3.Perry W. G. Forms of Intellectual and Ethical Development in the College Years. — New York: Holt, Rinehart and Winston, 1970.

4. Schommer M. Epistemological Development and Academic Performance among Secondary Students // Journal of Educational Psychology. — 1993. — Vol. 85(3). — P. 406–411.

5. Baxter Magolda M. B. Knowing and Reasoning in College: Gender-Related Patterns in Students’ Intellectual Development. — San Francisco: Jossey-Bass, 1992.

6. Kitchener K. S., King P. M. Reflective Judgment: Concepts of Justification and Their Relationship to Age and Education // Journal of Applied Developmental Psychology. — 1981. — Vol. 2. — P. 89–116.

7. Karimova V. M. Psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

8. G‘oziev E. G. Tafakkur psixologiyasi. — Toshkent: Universitet, 1990.

9. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2007.

10.To‘xtayev B. Shaxs tafakkuri va bilish jarayonlari psixologiyasi. — Toshkent, 2015.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694